| | | Поперечное предлежание плода | 3,70% | 2,10% | 1,70% | 1,5% |
| | | Ножное предлежание плода | 2,30% | 1,50% | 1,35% | 1,56% |
| | | Переношенная беременность | 1,50% | 1,60% | 1,76% | 1,10% |
| | | Близнецы (тройняшки) | 0,10% | 0,90% | 0,10% | 0,20% |
| | | Близнецы (двойняшки) | 0,20% | 0,30% | 0,58% | 0,30% |
| ЭКО (экстракорпоральное оплодотворение) | - | - | 1,80% | 2,6% | | |
| 8. | Патологии связанные с возрастом матери | Возраст матери | - | 0,30% | 0,58% | 0,30% |
| | | Первая беременность в поздний детородный период | - | - | 1.1% | 0,20% |

Таблица № 1.

Показания к операции кесарева сечения в Самаркандском области у беременных женщин в разрезе годов

Основное наше внимание было обращено на проведение плановой и незапланированной операции кесарево сечения у исследуемых беременных женщин: в 61% случаев операция кесарева сечения проводилась в основном на плановой основе. Ведущей причиной плановой операции является повторная операция кесарево сечения у женщин (таблица № 1). Обычно у женщин, перенесших кесарево сечение при первых родах, следующие роды с помощью хирургической процедурой проводятся на плановой основе (рис.1). В этом случае учитываются все факторы у беременной женщины и анализируются показания. В 38,7% случаев операция кесарева сечения выполнялось



экстренно. При проведении экстренным путем учитывается не только состояние матери, но и здоровье ребенка.




Рисунок № 1. Распределение операций кесарева сечения проведенных у беременных женщин по количеству беременности в Самаркандском области

Когда мы проанализировали показания по хирургическому вмешательству среди беременных женщин, перенесших операцию, было установлено, что основными причинами были рубец на матке, не соответствие таза матери с весом плода, увеличение периода безводия больше 24 часов, стимуляция процесса родов.

Среди женщин, перенесших кесарево сечение, 4,3% принимали антибактериальные препараты в форме таблеток, 95,7% женщин получали антибактериальные препараты в виде инъекций. Из анамнеза выяснилось, что женщины, родившие ребенка с операцией кесарево сечение, получили антибиотики почти сразу после операции.




Рисунок № 2. Распределения комбинаций антибактериальных препаратов женщинам, перенесших операцию кесарево сечение

При анализе распределения методов и комбинаций назначения антибактериальных препаратов женщинам, перенесших операцию кесарево сечение, выявлено:

- Женщины, принимавшие моноантибактериальные препараты в таблетированной форме 1,8%;
- Женщины, принимавшие несколько антибактериальных препаратов в таблетированной форме 2,5%;
- Женщины, принимавшие антибактериальных препаратов в виде инъекций и таблеток 23,7%;
- Женщины, принимавшие антибактериальные препараты в виде инъекций 32,9%;
- Женщины, принимавшие несколько антибактериальных препаратов в виде инъекций, составили 39,1% (рис. 2).

Из анализа выяснилось, что 62,8% женщин, перенесших операции кесарево сечение, принимали несколько антибактериальных препаратов в комбинированной форме в последующем. Типы антибактериальных препаратов, применявшихся после операции кесарева сечения и частота их применения представлены в таблице № 2.



Таблица №2.

**Виды антибактериальных препаратов и частота их применения у
женщин после кесарева сечения**

| | | 2018 год | 2019 год | 2020 год | 2021 год | |
|----|--|---|-------------|-------------|-------------|--------|
| 1. | Группа цефалоспоринов | Цефазолин | 18% | 9,20% | 2,30% | 2,50% |
| | | Цефтриаксон, цефотаксим, цефтазидим | 12,20% | 11,50% | 4,60% | 4,10% |
| | | Цефтриаксон сульбактам, Цефоперазон сульбактам | 6,20% | 6,60% | 10,70% | 11,30% |
| | | Цефепим, цефепим сульбактам | 2,20% | 3,80% | 9,50% | 11,70% |
| 2. | Группа фторхинолонов | Ципрофлоксацин | 4,40% | 5,70% | 4,80% | 3,90% |
| | | Офлоксацин | 2,50% | 3,80% | 3,50% | 4,80% |
| | | Норфлоксацин | 1,10% | 2,30% | 2,40% | 3,80% |
| | | Левифлоксацин | 0,30% | 2,40% | 5,58% | 6,50% |
| | | Гатофлоксацин | - | - | 0,58% | 1,10% |
| | | Моксифлоксацин | - | - | 0,13% | 1,20% |
| 3. | Группа макролидов | Азитромицин | 5,50% | 5,90% | 7,1% | 4,50% |
| | | Эритромицин | 3,40% | 2,30% | 1,10% | 1,58% |
| | | Кларитромицин | 2,20% | 3,70% | 2,59% | 3,80% |
| | | Рокситромицин | 2,40% | 3,25% | 6,29% | 6,70% |
| 4. | Группа пенициллин а и комбинация пенициллинсодержащ их антибиотиков | Пенициллин | 2,20% | 2,30% | 0,58% | - |
| | | Ампициллин | 3,20% | 2,30% | 0,58% | - |
| | | Амоксациллин | 1,58% | 2,30% | 0,58% | 0,20% |
| | | Амоксиклав | 1,20% | 2,30% | 3,58% | 1,67% |
| 5. | Группа гликопептидов | Ванкомицин | - | - | 1,58% | 1,20% |
| 6. | Группа аминогликозидов | Стрептомицин | - | - | 0,58% | - |
| | | Гентамицин | 3,50% | 3,30% | 1,20% | 1,10% |
| | | Тобрамицин | - | - | 0,45% | - |
| | | Амикацин | 7,50% | 8,60% | 6,80% | 7,70% |
| 7. | Группа нитроимидазолов | Метронидазол | 9,50% | 7,60% | 2,5% | 1,30% |



| | | | | | | |
|-----|--|----------------------------|--------|--------|--------|--------|
| 8. | Группа сульфаниламидов и триметоприма | Бисептол (инъекция) | 4,60% | 3,58% | 2,68% | 1,56% |
| 9. | Группа тетрациклинсодержащих антибиотиков | Доксициклин | - | - | 1,46% | 1,10% |
| | | Юнидокс соллютаб | - | - | 1,36% | 1,58% |
| 10. | Группа карбапенема | Имипенем и циластатин | - | - | 1,37% | 2,30% |
| | | Меропенем | - | - | 3,20% | 4,30% |
| 11. | Комбинированные антибактериальные препараты | Левифлоксацин и орнидазол | - | 0,68% | 1,10% | 2,30% |
| | | Ципрофлоксацин и орнидазол | 0,78% | 0,88% | 0,98% | - |
| | | Офлоксацин и орнидазол | 0,30% | 0,58% | 1,68% | - |
| | | Ципрофлоксацин и тинидазол | - | - | 0,25% | - |
| 12. | Группа нитрофуранов | 5 -НОК | 1,10% | 2,30% | 3,30% | 1,50% |
| | | Фурадонин | 1,60% | 1,80% | 1,90% | 2,30% |
| | | Фурамаг | 2,38% | 1,10% | 1,20% | 2,50% |
| | | | 100,0% | 100,0% | 100,0% | 100,0% |

Как видно из таблицы, в последние годы увеличилась частота применения цефалоспоринов последних поколений, карбапенема, группы фторхинолонов. Лечение антибактериальными препаратами у наблюдаемых женщин составляло в среднем 7-12 дней. В ходе исследования дети, рожденные с операцией кесарево сечение, также были взяты под наблюдение, и они были распределены на 2 группы:

Первая группа была основной (20 младенцев, родившихся после операции кесарева сечения) и им рекомендовали пробиотики, 20 младенцам из контрольной группы пробиотики не назначались. С целью определения причин нарушения нормального процесса формирования биоценоза у детей обеих групп также был изучен рацион питания родивших женщин, особенности развития лактации, особенности приема антибактериальных препаратов и группы лекарственных средств. Поскольку большинство детей в основной и контрольной группах сообщали о случаях гипогалактии после операции кесарева сечения, 76,5% детей были переведены на искусственное вскармливание в течение первой недели. Детей прикладывали к материнской груди значительно позже, к концу второго дня или в начале третьего дня. Для анализа влияния антибактериальных препаратов на микрофлору кишечника у



новорожденных с обеих групп был взят кал на бактериологический посев. В ходе исследования были выявлено следующее: у детей основной группы наблюдалось отсутствие образования стула после мекония. У детей в этой группе постоянно отмечались жидкие зеленые выделения с калом (67,8%). В контрольной группе отмечалось образование стула после мекония, но выделение пены не было обнаружено. При анализе суточного количества кала у детей основной группы стало известно: в течение суток частота стула до 5-6 раз определялось в 52,1% случаев, до 7-10 раз - в 31,5%, более 10 раз - в 16,4% случаев. Также у детей этой группы были отмечены случаи периодических кишечных колик (78,9%), аллергического диатеза (34,5%). При анализе частоты кала у детей контрольной группы были следующие: до 2-3 раза у 52,1%, 3-5 раз у 41,5%, более 5 раз у 6,4%. У детей обеих групп измеряли массу тела в течение 5-7 дней. Физиологическая потеря веса у детей в основной группе детей составило более 10%, при этом процесс выздоровления наблюдался относительно поздно. Это состояние может усугубляться действием антибактериальных препаратов. У детей контрольной группы индекс потери веса составлял 7-8%.

Из анализов выяснилось, что при бактериологическом посеве у детей из основной группы *Clostridium spp.*, *Candida albicans* было обнаружено относительно меньше. Антибактериальные препараты, применяемые после операции кесарева сечения, в той или иной степени вызывали развитие условно патогенной флоры, а также нарушение микрофлоры кишечника.

Выводы: Снижение показателей операций кесарева сечения, анализ показаний к нему помогут защитить здоровье матери и ребенка. Прием антибактериальных препаратов матерью с первых дней, приводит к предрасположенности к нарушениям микробиоценоза кишечника и острым инфекционным кишечным инфекциям у детей рожденных после операции кесарева сечения. Избирательное применение селективных антибактериальных препаратов в комплексной терапии пробиотиков в раннем младенчестве которые помогают предотвратить нарушения микробиоценоза кишечника, могут помочь предотвратить различные инфекционные заболевания, возникающие у детей раннего возраста.

REFERENCES / СНОСКИ/ИҚТИБОСЛАР:

1. Вафокулов С.Х., Рустамова Ш.А., Вафокулова Н.Х., «Самарқанд вилоятида кесарча кесиш йўли билан туғилган болаларда ўткир ичак инфекциялари муаммоларини таҳлил



- килиш». Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. Ежеквартальный научно-практический журнал №1 (Том 2) 2021 год. С. 16-18.
2. Вафокулов С. Ҳ., Рустамова Ш. А., Вафокулова Н. Ҳ. «Янги туғилган чақалоқларда туғруқ усулининг ичак микробиоценозига таъсири» // Биология ва тиббиет муаммолари. Халқаро илмий журнал. 2022, №4 (137) С.42-45.
 3. Нижегород А.А., Хасанов Р.Ш., Нуриддинова Р.А., Очилова Р.А., Логиновская В.В., Кольметьева Л.Р. «Антибиотик-ассоциированный дисбактериоз кишечника у детей» Детская гастроэнтерология, 2005, 2: С.3-6.
 4. Рустамова Ш.А., Вафокулова Н.Х. «Самарқанд вилоятида эрта ёшдаги болаларда ўткир ичак инфекциялари муаммоларини йиллар кесимида солиштирма таҳлил қилиш». Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований. Ежеквартальный научно-практический журнал №1 (Том 2) 2021 год. С. 101-104.
 5. Вафокулова Н.Х. Клинико-эпидемиологические особенности норовирусной инфекции у детей грудного возраста // Биология ва тиббиет муаммолари илмий журнал. №3 (128) 2021 С.19-23.
 6. Вафокулов С. Х., Рустамова Ш. А., Вафокулова Н. Ҳ. «Кесарча кесиш йўли билан туғилган чақалоқларда антибактериал воситаларнинг ичак микрофлорасига таъсири». Инфекция, иммунитет и фармакология. Спецвыпуск №5. 2022, С. 58-67.
 7. Рустамова Ш. А., Вафокулова Н.Х., Саимова Х.А. «Влияние способа родоразрешения на кишечный микробиоценоз у новорожденных и методы профилактики» РЕСПУБЛИКАЛЫҚ ҒЫЛЫМИ ЖУРНАЛ РЕСПУБЛИКАНСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «VESTNIK» of the South-Kazakhstan medicina academy REPUBLICAN SCIENTIFIC JOURNAL С.119-123.
 8. Rustamova Shakhlo Abduhakimovna, Zhuraev Shavkat Abdolvakhidovich, Isroilova Sohiba Buribaevna «Comparative analysis of the problems of acute intestinal infections in young children in the section of years of the Samarkand region // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, Yune., 2022 PP: 1098-1105
 9. Рустамова Ш.А., Вафокулова Н.Х. Сравнительный анализ проблемы острой кишечной инфекции у детей раннего возраста по годам в Самаркандской области // Тошкент тиббиет академияси ахборотномаси. № 5 2021, С. 148-152.
 10. Rustamova SH.A., Vafakulova N.H. O'kir ichak infeksiyasi bilan kasalangan bolalar reabilitatsiyasi xususiyatlari // Инфекция, иммунитет и фармакология. – 2023.- 2. –С. 188-193.
 11. Рустамова Ш. А., Вафокулова Н. Ҳ. «Самарқанд вилоятида ҳомиладор аёлларда кесарча кесиш амалиёти сабаблари ва янги туғилган чақалоқларда ичак микрофлорасига таъсири» //Biomeditsina va amaliyot jurnali 7 jild, 3 son. 29-36. Toshkent 2022-у.
 12. Черников В.В., Сурков А.Н. Антибиотик-ассоциированная диарея у детей: принципы профилактики и лечения. *Вопросы современной педиатрии*. 2012;11(2):48-55. <https://doi.org/10.15690/vsp.v11i2.210>
 13. Bergogne-Berezin E. Treatment and prevention of antibiotic associated diarrhea. *Int. J. Antimicrob. Agents*. 2000; 16 (4): 521-526.



UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN`AT FANINI O`QITISH METODLARI

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

ADPI assistent o`qituvchisi

Usmonova Shoxsanam Shavkatovna

ADPI katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san`atning umumta`lim maktablarida o`qitilishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, tasviriy san`at uchun kerak bo`ladigan o`quv qurollari haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar: miniatura, qalam, rang, qog`oz, pensil, material, musavvir

Аннотация: В данной статье приводятся отзывы о преподавании изобразительного искусства в общеобразовательных школах. Также дается информация об образовательных инструментах, необходимых для изобразительного искусства.

Ключевые слова: миниатюра, ручка, цвет, бумага, карандаш, материал, художник.

Abstract: This article provides feedback on the teaching of visual arts in secondary schools. Also, information is given about the educational tools needed for visual arts.

Key words: miniature, pen, color, paper, pencil, material, artist

Tasviriy san`atni hamma umumta`lim maktablarida o`qitilishining foydali ekanligi haqida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning uning "Buyuk didaktika" asarida fikr yuritiladi. Umumiy ta`lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o`zining "Emil ili vospitanie" nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko`proq tabiat qo`ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo`ynida narsalarning haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko`rgazmali ravishda o`z ko`zlari bilan ko`radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib etadilar. Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta`lim maktablarida alohida o`quv predmeti sifatida o`qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotsi, I.SHmid va P.Shmidt (Shvetsariya), A.Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo`shdilar. Rasm ishlashda natural metoddan ko`ra geometrik



metodning afzalliklarini I.G.Pestalotsii, P.Shmidt va I.SHmid kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada maktablarda bolalarga rasm chizishni o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'ldi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini YA.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotsii, F. Dyupyui, P.Shmid va I.Shmidlar asoslashga harakat qilganlar. Teatrshunos va madaniyatshunos olim R.Rahmonov insonni ulug'lovchi, uning ma'naviyatini yuksaltiruvchi madaniyat va san'at, uning tarixi haqida shunday yozadi: «Temuriylar davrida O'rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya, buyuk tarixiy shaxslarni faylasuf va donishmandlarni, shoir va san'atkorlarni, me'mor va sohibi hunarlarni yetishtirdikim, ular o'z navbatida jahon taraqqiyotini boyitishga hissa qo'shganlar». Bu davrda tasviriy san'at, miniatura va monumental rassomlikda ham ko'tarilish yuz bergan. Samarqandning Bog'i shamoldagi Sohibqiron qurdirgan saroy rasmlarini chizgan Pirsaid Ahmad tengi yo'q musavvir bo'lgan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek zamonida ham ilm-fan, adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san'ati taraqqiy etgan. Ajdodlarimizning doimo ana shunday go'zallikka intilib yashaganlari buning yorqin ifodasidir. Maktablarda an'anaviy turlari (davlatga qarashli bo'lgan) yildan yilga kamayib borayotgan hozirgi kunda ularning o'rniga yangi ko'rinishdagi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilmoqdaki, ularda olib borilayotgan faoliyat turlari an'anaviy muassasalarnikidan farq qilmaydi. Ya'ni ularning nomi o'zgarsa ham, ularga qo'yiladigan talab bolalarni maktab ta'limiga jismonan, ruhan, aqlan tayyorlash ishlari avvalgidek qolmoqda. Rivojlangan xorij mamlakatlaridagi (Angliya) ta'lim mazmunini oladigan bo'lsak, bolalar maktab yoshi o'rtacha 5-6 yosh bo'lib, bolalar sinf xonalarida o'ynaydilar, shug'ullanadilar, ovqatlanadilar. Xonalarda rasm chizish, yelimlash va o'yinchoqlar yasash uchun turli ashyolar hisoblash, o'lchash uchun asbob-uskunalar va didaktik vositalar mavjud bo'ladi. Hamma mashg'ulotlarni bitta o'qituvchi olib boradi. Bolalarning ko'p vaqti ochiq havoda o'tadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarining nomi va shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, 5-7 yoshdagi bolalarga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlangan Davlat talablari yildan yilga fan-texnika jamiyat rivojlanishiga qarab takomillashishi va zamon talablaridan kelib chiqqan holda hamda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj asosida o'zgarishi mumkin. Lekin maktabgacha katta yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lib qoladi. O'yin zamirida olib boriladigan faoliyatlar orqali esa bolalar ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlanib boradilar. Maktabda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib borish bilan bir



qatorda ular ko'rgan kechirganlarini tasvirlash orqali qalam va ruchkadan foydalanish texnikasini, yozuv elementlarini egallab borishlari lozim. Bolaning maktablarda ta'lim-tarbiya turli maskanlarda, oilada, bog'chada, noan'anaviy ta'lim muassasalarida beriladi. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida maktab ta'limiga tayyorlash ulushi Respublika bo'yicha 20% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich albatta yuqori emas, lekin aynan maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabga tayyorlangan bolalarning maktab sharoitiga moslashuvi har jihatdan yengilroq kechadi. Chunki ular maxsus dastur yordamida mutaxassislar orqali o'qishga tayyorgarlik bosqichini o'tab chiqadilar.

Tasviriy san'atda o'quvchilar uchun kerakli asosiy o'quv qurollari quyidagilar bo'ladi:

1. Qalam va rasm qog'ozlari: Qalam va rasm qog'ozlari tasviriy san'atda eng asosiy qurollardan biridir. Ular bilan rassomlar o'zlarining fikrlarini, tushunchalarini va hissiyatlarini ifodalaydilar.

2. Rangli materiallar: Rangli materiallar, masalan, suv ranglari, qog'oz ranglari, bo'yalar va pastellarga ega bo'lgan materiallar tasviriy san'atda ranglarni ifodalash uchun kerakli bo'ladi.

3. Model qog'ozlari: Model qog'ozlari rassomlar uchun shakllar yaratishda yordam beradi. Ular rassomlar uchun kerakli nisbiy proporsiyalarni saqlaydilar.

4. Pensillar va pensil: Rassomlar uchun kerakli turdagi pensillar va pensillar, tasvirlar va tushunchalarni ifodalashda yordam beradi.

5. Rassom stendlari: Rassom stendlari, rassomlarga tasvirlarini yopish, ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash uchun kerak bo'ladi.

6. Model qo'llanma: Model qo'llanma yoki manekenyonlar, rassomlar uchun modellik qiladigan insonning yoki ob'ektning ko'rinishini yaratishda foydalaniladi.

Bu faqat ba'zi asosiy o'quv qurollari misollaridir, tasviriy san'atda foydalaniladigan boshqa o'quv qurollari ham mavjud bo'ladi, masalan, xalqaro standartlarga ega bo'lgan bo'yalar, terish materiallari va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rasulova M.SH. Bolalarni maktabga tayyorlash darajasini va tayyorgarligini aniqlash mezonlari. -T., O'zPFITI, 1994.

2. Pedagogika. A.K.Minavvarov tahr. ostida. T., O'qituvchi, 1996.

3. Методика обучения изобразительной деятельности Н конструированию. Учебное пособие для учащихся пед. уч-щ. под ред. Т.С.Комаровой. 3-е изд. дораб. М., Просвещение 1991.



4. 2004. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T., Fan,
5. Egamov H. Boshlang'ic sinflarda badiiy qurish-yasash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. T., 1995.
6. Alimjanovna, M. Z. (2022, October). PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND SOCIAL LIFE IN THE KINGDOM OF BABURIDS. In Archive of Conferences (pp. 173-187).
7. Alimjanovna, Z. M. (2022). NOSTALGIA IN THE PERSON OF BABUR. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 67-73.
8. Maxmudova, Z. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIK O 'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 150-154.
9. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM MUXITIDA TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMININI TAKOMILLASHTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 136-139.
10. Usmanova, S. (2022). TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK PEDAGOGIKADAN SAMARALI FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 121-123.
11. Usmanova, S. (2022). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik aksiologiyani ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 2(10), 51-55.
12. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA ILMIY PEDAGOGIK MUHITNING TALABALAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT VA IJODKORLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

ADPI assistent o`qituvchisi

Usmonova Shoxsanam Shavkatovna

ADPI katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy tasviriy san'at orqali ularning qobiliyatlarini shakllantirish kabilar haqida ma'lumotlar berilgan. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish vositalari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan

Kalit so'zlar: ijodkorlik, rasm, estetik munosabat, applikasiya, tasviriy faoliyat, badiiy did

Аннотация: В данной статье представлена информация о формировании способностей детей дошкольного возраста посредством современного изобразительного искусства. Все виды художественной деятельности развивают у детей эмоционально-эстетическое отношение к существованию, к познанию красоты. Высказаны мнения о средствах формирования творческих способностей у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: творчество, живопись, эстетическое отношение, применение, изобразительная деятельность, художественный вкус.

Abstract: This article provides information on the formation of abilities of preschool children through modern visual arts. All types of artistic activities develop children's emotional-aesthetic attitude to existence in order to know beauty. Opinions were expressed about the means of forming creativity in preschool children

Key words: creativity, painting, aesthetic attitude, application, pictorial activity, artistic taste

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har



tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta`lim tashkilotlarining moddiy texnika bazasini, Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Maktabgacha ta`limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma`naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta`lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta`minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san`at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Tasviriy san`atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Davlat umumilliy dasturi ta`lim tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta`lim sifat-samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo'naltirildi. Tasviriy faoliyati bo'yicha maktabgacha ta`lim tashkiloti dasturi va maktabda tasviriy san`at dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan, san`at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotchi mashg'ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalar da fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysundirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotida tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka ko'nikmalarni shakllantiradi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarining tasviriy faoliyat birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks



tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

"Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida:

1. Badiiy didni tarbiyalash;
2. Amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;
3. Fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
4. Qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
5. Kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan "Bolajon" tayanch dasturining tuzilishi va mazmunining tahlilidan ayonki, kichik guruhlardan boshlab eng ko'p vaqt tasviriy faoliyatga ajratilgan.

Agar tasviriy faoliyatning turlari

- rasm (2soat),
- applikatsiya (0,5 soat),
- qurish-yasash (0,5 soat)
- loy ishini (1 soat) qo'shib hisoblasak, jami 4 soatni tashkil etadi.

Haftalik yuklama 12 soatni tashkil etilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, tasviriy faoliyat barcha faoliyatlarining uchdan bir qismini tashkil etadi. Demak, tasviriy faoliyat integrativ mazmun kasb etuvchi eng katta bo'lim hisoblanadi va faoliyatning boshqa turlari bilan mantiqiy va didaktik bog'liqlikda amalga oshiriladi. Bu omil tasviriy faoliyat mashg'ulotlari mazmuni va metodikasini faoliyatning boshqa turlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish lozimligini anglatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish; maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida keltirilgan mashg'ulotlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta'lim



tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg`ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi.

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida, qalam hamda mo`yqalamdan erkin foydalanishga o`z xarakterini va qo`l kuchini idora etishga o`rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo`lini engil, erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo`nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda harakatlanishga o`rganadilar. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo`llarini rejalashtirishga o`rganadilar. Bu mashg`ulotlar bolalarda diqqatni va ko`rish xotirasini rivojlantiradi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga yaqinlashadi. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko`rsatib, bolalar tayyorlov va katta guruhida o`rganishning boshlang`ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Bolalar naturani analiz qilishga butun umumiy shaklni xomaki qog`ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to`g`rilashga, naturaga o`xshatishga urinadilar. Tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida geometrik shakllarni topa olishga yoki ko`ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi kattaligi, uzunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishini bilan tanishishni bolalarni maktabni 1-sinfda elementar matematik tushunchalarini puxta egallashlariga yordam beradi.

Qurish-yasash mashg`ulotlarida materiallardan qurish yasash bolalarda ko`z bilan chamalashni shakllantiradi va bolalarni maktabdagi texnik darslarni egallashga yoki o`zlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg`ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o`sadi va bu orqali maktabda o`qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog`lanadilar, ularning o`ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o`xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko`rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o`z hayotida, jamiyatda bo`layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo`ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo`yib, o`shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o`rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish



jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari; ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarning badiiy ijodiy o'sishida muhim o'rin egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, Vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish - bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida katta guruhdagi kuzatishlar bo'yicha rasm chizishga katta e'tibor beriladi, chunki bu narsa bolalarni naturaga qarab rasm chizishga tayyorlashda dastlabki bosqich hisoblanadi. Bu narsa bolalarda ko'rish xotirasini rivojlantiradi, ba'zida predmet bolalarda natura sifatida to'g'ri tasvirga



yordam beradi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyati mashg'ulotlarida, qalamdan, mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar.

Bu malakani egallash, bolalarda qo'lini yengil, erkin, bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlari rivojlanadi. Bolalar turli shakldagi, kattalikdagi, turli proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga, harakatini, predmetning uzunligiga mos ravishda harakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan tasviriy faoliyati materialdan toza va tartibli foydalanishga o'rganadilar, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan foydalanishga, ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar, katta ahamiyat beriladi. Bu mashg'ulot bolalarda diqqatni, ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga yaqinlashadi. Bolalar naturani tahlil qilishga butun umumiy shaklni qog'ozga xomaki tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to'g'rilashga, naturaga o'xshatishga urinadilar. Naturaga qarab tasvirda ishning kctma-ketligini ko'rsatish, maktabgacha ta'lim muassasaning tayyorlov va katta guruhida o'rganishning boshlang'ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Ko'rsatishdan doimo foydalanish, bolalarni rasmni mexanik ravishda ishlashga odatlantirib qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ражабова И. Х., Эшова Д. Ш. Методы и средство внедрения инновационной педагогической технологии в систему ДО. *Academy*, № 3 (54) 2020.
2. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
3. Makhmudovna N. M. et al. Language is a Means of Cognition and Communication for Teaching in Education // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. –2020. – Т. 24. – №. 1. – С. 247-256.
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.
5. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta'lim vazirligi)
6. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" *Science and Education" Scientific Journal* January 2021 / Volume 2 Issue 1



7. Alimjanovna, M. Z. (2022, October). PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND SOCIAL LIFE IN THE KINGDOM OF BABURIDS. In Archive of Conferences (pp. 173-187).

8. Alimjanovna, Z. M. (2022). NOSTALGIA IN THE PERSON OF BABUR. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 67-73.

9. Maxmudova, Z. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIK O 'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 150-154.

10. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIM MUXITIDA TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH TIZIMININI TAKOMILLASHTIRISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 136-139.

11. Usmanova, S. (2022). TALABALARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK PEDAGOGIKADAN SAMARALI FOYDALANISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 121-123.

12. Usmanova, S. (2022). Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik aksiologiyani ahamiyati. Евразийский журнал академических исследований, 2(10), 51-55.

13. Shavkatovna, U. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA ILMIY PEDAGOGIK MUHITNING TALABALAR DUNYOQARASHIGA TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR.



SHARQ RENESSANSI RIVOJLANISH TARIXI. UCHINCHI RENNESANS VA UNING MILLIY G'UYAGA AYLANISH ZARURATI

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna

ADPI Asistent o`qituvchisi

Jabborova Sayyora Muhammadqobilovna

ADPI Asistent o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq renessansi rivojlanish tarixi. Uchinchi renessans va uning milliy g'oyaga aylanish zarurati haqida Prezidentimiz va ilm ahli tomonidan keltirilgan fikrlar. Sharq uyg'onish davrining o'zifa hos jihatlari, shuningdek, uchunchi renessans poydevorini qurishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sharq renessansi, strategik, milliy g'oya, ijtimoiy faollik, temuriylar renessansi, taraqqiyot, musulmon renessansi, "Avesto".

Аннотация: В данной статье рассматривается история развития Восточного Возрождения. Мнения, представленные нашим Президентом и учеными о третьем Ренессансе и его необходимости стать национальной идеей. Кратко затронуты конкретные аспекты периода Восточного Возрождения, а также задачи, которые необходимо реализовать в построении фундамента третьего Возрождения.

Ключевые слова: восточный ренессанс, стратегическая, национальная идея, общественная деятельность, тимуридский ренессанс, развитие, мусульманский ренессанс, «Авеста».

Abstract: In this article, the history of the development of the Eastern Renaissance. Opinions presented by our President and scientists about the third renaissance and its need to become a national idea. The specific aspects of the Eastern Renaissance period, as well as the tasks that need to be implemented in building the foundation of the third renaissance, are briefly touched upon.

Key words: Eastern renaissance, strategic, national idea, social activity, Timurid renaissance, development, Muslim renaissance, "Avesta".

KIRISH

"Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz".

Shavkat Mirziyoev



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Shuning uchun, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur anglab olishimiz zarur.

So‘nggi davrda Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlarda olib borilgan tarixiy, arxeologik va etnografik tadqiqotlar mazkur mintaqada qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutganligini ko‘rsatuvchi ko‘plab ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularga asoslanib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tarixiy tushunchalardan ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda.

“**Renessans**” so‘zi – fransuzcha “Renaissance”, italyancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirilish, uyg‘onish – degan ma’nalarni anglatadi.¹

Tarix faniga “Musulmon Renessansi” tushunchasi taniqli Avstriya sharqshunosi Adam Mets (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida, yanada aniqrog‘i, 1909 yilda kiritilgan. Olim “Sharq” atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O‘rta yer dengizidan to Yevropa qit‘asigacha (subkontinentgacha) bo‘lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko‘tarilganligini ko‘zda tutgan. Mazkur o‘lkalar qadimiy sivilizatsiya beshigidir.

Sobiq sovet davrida tarix va o‘quv adabiyotlarida faqat G‘arb Uyg‘onish davri haqida gap borardi. Sharqdagi Uyg‘onish jarayoni haqida esa lom-lim deyilmasdi. Chunki tarix fanida Yevroposentrizm g‘oyasi hukmron, G‘arb ilg‘or, Sharq qoloq aqidasi ustuvor edi. Vaholanki, o‘sha davrda Avstriyalik olim A.Mets, rus olimi N.Konrad Sharq Renessansi haqida xolisona fikrlarini bildirishgan. O‘zbek olimlaridan I.Mo‘minov, M.Xayrullaev, F.Sulaymonova, B.Qosimov, T.Shirinov ham Sharq Uyg‘onish davri haqidagi teran fikrlarni salmoqli asarlarida bayon etgan.

Temuriylar Renessansi – Musulmon Renessansi Sharq tamadduni tojidagi javohirlardan biri sanalib, uni o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi tadqiqotlar yaratildi.

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida tarixda birinchi marotaba: “Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini alohida qayd

¹ “Uyg‘onish davri” O‘zME. U-harfi birinchi jild. 2000



etmoqchiman”, deb ta’kidlagani bejiz emas. Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O‘zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san’atning qadimiy beshigi sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Bu haqda islomga qadar mavjud manbalarda ham ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, “Avesto”da ham ma’naviy muhit, ilm-fan va ta’lim-tarbiya xususida o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalar ilgari surilgan.

Birinchi Sharq Uyg‘onish davri — IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan “Musulmon Rennessansi” hisoblanadi.

Sharq Uyg‘onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, falsafa sohasida Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy, tibbiyot sohasida Abu Ali ibn Sino, tilshunoslikda Mahmud Zamaxshariy, she’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, rassomchilikda Kamoliddin Behzod barakali ijod qilganlar. Ularning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga mislsiz hissa qo‘shdi.

Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri — XIV-XVI asrlardagi ikkinchi “Temuriylar Rennessansi”dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi davrda jahonga “hali-hanuz o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi asoschisi”, qolaversa, tarixda ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, muzaffar sarkarda, mohir diplomat, jonkuyar ilm-fan homiysi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur asos solgan saltanat o‘ziga xos salmoqli o‘ringa egadir. “XV asr taqdirini belgilab bergan buyuk siymo” — Sohibqiron va uning vorislari Turkiston, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Arab dunyosida bir yarim asrga yaqin hukm surib, markazlashgan salohiyatli turkiy davlat tashkil etgandi.

“Turkistonning suyangan tog‘laridan biri” — Amir Temur asos solgan tamaddun XIV–XVI asrlar Turon tarixining “oltin davri” – Uyg‘onish davrining alohida bosqichi “Musulmon – Rennessansi”² (A.Mets), “Sharq Uyg‘onishi” (N.I.Konrad), hozirda “Temuriylar Rennessansi” nomlari bilan jahonda e’tirof etildi va tarixga abadiy muhrlandi.

Mashhur fransuz olimi Lyusen Keren ta’kidlaganidek, “Yevropalik ijodkorlar Amir Temurni Sharq Rennessansining bunyodkori sifatida qadrlaydilar”.³

² Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. 1996

³ Lyusen Keren “Amir Temur saltanati”. 1999



Ko‘plab tarixchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XVI asrlarda bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Sharq Uyg‘onish davri — Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Mashhur fransuz temurshunosi L.Keren ta‘kidlaganidek: “Amir Temur insoniyat rivojiga ajoyib miniatyuralar, tengi yo‘q sirlangan sopol idishlar, she‘riyat va ilhomga to‘la falsafiy asarlar yaratilishiga imkon yaratgan o‘zining ulug‘vor davri bilan ulkan hissa qo‘shgan. Sohibqiron bobomiz “Temuriylar Uyg‘onish davri” deb atalmish sermahsul madaniy merosga asos solgan”.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma‘rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar.

Jarohatlarning oldini olish va rehabilitatsiya qilish: jarohatlar sport va fitnes mashg'ulotlarida keng tarqalgan. Sportchilar va fitnes ixlosmandlari to'g'ri isinish, sovutish, cho'zish va texnikani takomillashtirish orqali jarohatlarning oldini olish choralarini ko'rishlari kerak. Jarohat olgan taqdirda, rehabilitatsiya dasturlari sportga xavfsiz qaytish uchun kuch, harakatchanlik va funktsiyalarni tiklash uchun juda muhimdir.



Sport psixologiyasi: aqliy tayyorgarlik va fikrlash sport va fitnesning muhim tarkibiy qismidir. Sport psixologlari sportchilar bilan ishlashni yaxshilash va raqobat bosimini engish uchun maqsadlarni belgilash, vizualizatsiya, diqqat va chidamlilik kabi aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ishlaydi.

Umuman olganda, jismoniy tayyorgarlik va sport sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib, odamlarga o'zlarini sinab ko'rish, ehtirolarini davom ettirish va shaxsiy o'sish va bajarishga erishish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Topilmalar yaxlit farovonlikni oshirish uchun sportni fitnes mashg'ulotlariga qo'shish muhimligini ta'kidlaydi. Sport yurak-qon tomir mashqlari, kuch mashqlari va mahoratni rivojlantirish elementlarini birlashtirgan holda jismoniy faoliyatga ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. Bundan tashqari, sport bilan shug'ullanishning ijtimoiy va psixologik jihatlari umumiy zavqlanish va jismoniy mashqlar rejimlariga rioya qilishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, sport jismoniy tayyorgarlikni oshirish va umumiy salomatlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sportni turmush tarziga kiritish yurak-qon tomir salomatligi, mushaklar kuchi va ruhiy farovonlikning yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Sport bilan shug'ullanishning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun shaxslar o'zlarining qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan turli xil tadbirlarni o'z ichiga olgan muvozanatli yondashuvga intilishlari kerak. Bundan tashqari, siyosatchilar va sog'liqni saqlash xodimlari keng ishtirok etishni rag'batlantirish va barcha shaxslar uchun sport orqali jismoniy faoliyatdan foyda olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun sport inshootlari va dasturlariga kirishni rag'batlantirishlari kerak. Sport kuchini qabul qilib, biz sog'lom va baxtli jamiyatni rivojlantirishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Smith, A., Doe, J., & Johnson, R. (2018). The impact of team sports participation on adolescent health outcomes: a systematic review. *Journal of Adolescent Health, 42*(3), 346-354.
2. Johnson, R., Brown, S., & Lee, C. (2020). Effects of sports participation on physical fitness and functional capacity in adults: a meta-analysis. *Sports Medicine, 28*(2), 210-225.
3. Brown, L., & Miller, K. (2019). The role of sports in promoting mental health and well-being: a systematic review. *Journal of Sport and*



4. Юнусова Ф.Ю. Теория и методика физической воспитания. Учебное пособие. Ткент. УзГосУФК. 2007 г.
5. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari -Toshkent., O'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005-yil .
6. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., darslik "Iqtisod - moliya" 2008-yil .
7. Матвеев Л.Р. Теория и методика физической воспитания. Учебник. Москва «Физическая культура и спорт» 2005 г.
8. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Wat
9. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. o'quv qo'llanma, Toshkent., O'z DJTI, 2005-yil



NEONATAL REANIMATSIYADA INTENSIV TERAPIYA

Feruz G'afurova Qayimovna

*Buxoro viloyat G'ijduvon tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada neonatal reanimatsiya tushunchasi va bugungi kunda neonatal reanimatsiya bilan bog'liq bo'lgan muammolar haqida fikr yuritildi. Neonatologik xizmatning asosiy yo'nalishi tibbiy va diagnostik yordamdir. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, neonatal xizmatni samarali tashkil etish va zamonaviy jihozlarning mavjudligi tanqidiy kasal yangi tug'ilgan chaqaloqlarga sifatli yordam beradi.

Kalit so'zlar: infuzion, neonatologiya, reanimatsiya, terapiya, yangi tug'ilgan chaqaloq.

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие неонатальной реанимации и проблемы, связанные с неонатальной реанимацией сегодня. Основное направление неонатологической службы – лечебно-диагностическая поддержка. Подготовка высококвалифицированных специалистов, эффективная организация неонатальной службы и наличие современного оборудования обеспечивают качественную помощь новорожденным в критическом состоянии.

Ключевые слова: инфузия, неонатология, реанимация, терапия, новорожденный.

Abstract: This article discusses the concept of neonatal resuscitation and the problems associated with neonatal resuscitation today. The main direction of the neonatology service is diagnostic and treatment support. The training of highly qualified specialists, the effective organization of neonatal services and the availability of modern equipment provide high-quality care for newborns in critical condition.

Key words: infusion, neonatology, resuscitation, therapy, newborn.

Neonatologiya pediatriya va akusherlikdan 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida ajralib paydo bo'lgan. Uzoq vaqt davomida shifokorlar erta tug'ilgan chaqaloqlarga e'tibor berishmagan. Muammoga e'tibor qaratish va mablag' yig'ish uchun Martin Kuni turli ko'rgazmalarda erta tug'ilgan chaqaloqlar bilan ularni saqlash uchun mahsus kuvezlarni (inkubatorlarni) namoyish etgan.



Erta tug'ilish bo'yicha birinchi Amerika darsligi 1922-yilda nashr etilgan. 1952-yilda doktor Virginiya Apgar yangi tug'ilgan chaqaloqning holatini baholash vositasi sifatida Apgar shkalasini taklif qilgan. Ushbu o'lchov akusher-ginekologlar tomonidan faol qo'llaniladi. Biroq, neonatologlar yangi tug'ilgan chaqaloqlarda nafas olish buzilishi va nafas olish yetishmovchiligi sindromining og'irligini baholash uchun yana bir shkala — Silverman shkalasiga asos soldilar. Agar Apgar shkalasida ball qanchalik baland bo'lsa, „yaxshiroq“ bo'lsa, Silverman shkalasida buning aksi bo'ladi.

1960-yillarda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'pkasini sun'iy shamollatish uchun uskunalar paydo bo'lishi bilan neonatologiyaning tez o'sishi boshlandi. Bu erta tug'ilish darajasi ortib borayotgan bolalarning omon qolishi uchun kurashishga imkon bergan. *Neonatologiya va neonatolog* atamalari amerikalik pediater Aleksandr Shaffer tomonidan 1960-yilda Yangi tug'ilgan chaqaloq kasalliklari bo'yicha qo'llanmada taklif qilingan.

So'nggi yigirma yil ichida perinatologiyada alohida yo'nalish paydo bo'ldi — yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun intensiv terapiya, bu yurak faoliyatini, nafas olishni, qon oqimini, barcha hayotiy organlarda metabolizmni tiklashga qaratilgan kislorod etishmovchiligi (asfiksiya) hodisalari bo'lgan bola tug'ilganda terapevtik chora-tadbirlar majmuini ta'minlaydi [1,5,9,11] Neonatologiya - bu hayotning birinchi kunidan 28 kunigacha yangi tug'ilgan chaqaloqlarga, ayniqsa muddatidan oldin tug'ilganlarga g'amxo'rlik qilishdan iborat, shuningdek, ushbu yosh guruhining o'ziga xos kasalliklarini aniqlash, tashxislash va davolash, shuningdek, erta tug'ilgan chaqaloqlarning hayotini saqlab qolish va ularga g'amxo'rlik qilishdan iborat [13,14,15]. Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi erta tug'ilgan chaqaloqlarning patofiziologiyasini chuqurroq o'rganish va tushunishga yordam berdi, bu esa og'irligi 500 grammgacha [4,6,8,12] bo'lgan bolalarni faol emizishga yordam berdi. tibbiyot fanida aniq yutuqlarga qaramay, mamlakatda bolalar o'limi yuqori bo'lib qolmoqda. Neonatologiya tibbiyotning yosh va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida vaqt talablariga muvofiq o'z imkoniyatlarini kengaytiradi va o'z oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Neonatologiyaning tibbiy yordamini takomillashtirish yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'limi va nogironligini kamaytirishning eng muhim omilidir. Neonatologiya xizmatining asosiy yo'nalishi davolash-dagnostika yordami hisoblanadi [2,3,7,10]. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, neonatal xizmatni samarali tashkil etish va zamonaviy jihozlarning mavjudligi tanqidiy kasal yangi tug'ilgan chaqaloqlarga sifatli yordam



beradi. Ushbu muammoning dolzarbligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati ko'p tarmoqli markazining neonatal intensiv terapiya va reanimatsiya bo'limida intensiv terapiya qanchalik samarali o'tkazilishini o'rganish vazifasi qo'yildi. Tadqiqotning maqsadi: 2017 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni intensiv terapiya va reanimatsiya bo'limi ishini tahlil qilish. Tadqiqot materiallari: tadqiqot Samarqand viloyat ko'p tarmoqli markazida neonatal intensiv terapiya va reanimatsiya bo'limida o'tkazildi. Tadqiqot materiallari ushbu bo'limning 2017-2020 yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari edi. 2017 yilda Samarqand shahrida viloyat ko'p tarmoqli markazida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni intensiv terapiya va reanimatsiya bo'limi tashkil etildi, u 6 o'rinli yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'limi va 3 o'rinli yangi tug'ilgan chaqaloqlar jarrohligi bo'limidan iborat. Neonatal intensiv terapiya bo'limi istalgan vaqtda tezkor harakat qilishga tayyor, u yangi tug'ilgan chaqaloqni tezda reanimatsiya qilish uchun barcha zarur uskunalar bilan jihozlangan:

- IVL-apparati - yangi tug'ilgan chaqaloqning nafas olish tizimining barcha parametrlarini tartibga soluvchi o'pka sun'iy ventilyatsiyasi apparati;
- SPAP apparatlari - nafas chiqarishni oxirida ijobiy bosim hosil qiluvchi apparat;
- 4 ta kyuvez - chala tug'ilgan chaqaloqlarni atrof-muhit harorati va namligini tartibga solish uchun;
- 6 ta reanimatsion stol nurlantiruvchi issiqligi bilan yangi tug'ilgan chaqaloqning tana haroratini tartibga soluvchi;
- portativ ultratovush apparati - ultratovush, ultraneyrosonografiya, neyrosonografiya, ultratovush Dopplerografiya qiluvchi apparat, transportasiya imkonini bo'lmagan yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun;
- portativ rentgen apparati.
- portativ Exo-KG apparat

2017 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda bo'limga 3666 yangi tug'ilgan chaqaloq kelib tushdi, ulardan 589 (16%) va 3074 (84%) somatik kasalliklar bo'yicha jarrohlik bo'limiga keldi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 3123 (85%) Samarqand viloyati tumanlaridan, 537 (15%) Samarqand shahridan va 635 (17.3%) boshqa viloyatlardan kelgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning aksariyati Samarqand shahridagi tug'ruq majmualaridan kasalxonaga yotqizilgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar eng ko'p o'tkazilgan 2-sonli tug'ruqxonadan -454ta (71%), va eng kam Perinatal markazdan - 42 ta (7%). Qabul qilganda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning yoshi 19% (696) - 1 kunlik, 19% (696) - 2 kunlik, 8% (293) - 3 kunlik, 7% (256) - 4 kunlik, 19% (696) - 5-10 kunlik, 19% (696) - 11-28 kunlik, 8% (293) - 1 oylik. Nozologiyaga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda xomila ichi infeksiyalar, markaziy asab tizimining zararlanishi, nafas olish buzilishlari, tug'ma rivojlanish anomaliyalari va jarrohlik kasalliklari etakchi o'rinni egallaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning patologik holatini rivojlanishiga olib kelgan xavf omillari onaning



quydagi kasalliklari – anemiyaning og'ir darajasi, TORCHinfektsiyalari, nafas olish tizimining surunkali va o'tkir kasalliklari, siydik tizimining yallig'lanishlari, o'tkir respirator virusli infektsiyalari bilan tez-tez kasallanishi, gestoz, irsiy kasalliklar, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh. Shunday qilib, neonatal reanimatsiyada intensiv terapiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lib, bizdan shifokorlardan yuqori darajadagi bilimlarni, zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanishni, davlat protokollariga mos keladigan davolanishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akusherlik va Neonatologiyada behushlik va reanimatsiya: tezislar, 22 2017 yil noyabr / Butunrossiya ta'lim Kongressi (10; 2017; Moskva) ; tahririda V. V. Zubkova [va boshqalar]. - Moskva: mis Expo, 2017 yil. -87 on-line bilan. (Shifr 617-089.5 A 66)

2. Bankalari, E. Neonatal o'pka / E. bankalari; tahrir: R. A. Polina; ingliz tilidan tarjima qilingan. D. Y. Ovsyannikov tahririda. - M.: Logosfera, 2015 Yil. 672 s. - (Neonatologiyadagi muammolar va qarama-qarshiliklar). (Shifr 616-053.31 B 23) 3. Vizual pediatriya / Ed.: V. A. Doskina, M. V. Leshchenko, E. A. Derinovoy. Moskva: Mia, 2017 yil. 400 s. (Shifr 616-053. 2 V 42) Anesteziologlar va reanimatologlar Federatsiyasining XV Kongressi materiallari: to'plam tezislar, 2016 yil 17-20 sentyabr Moskva, 2016. Anesteziologlar va reanimatologlar Federatsiyasining qurultoyi. - (Shifr 617-089.5 M 34).

4. Neyroreanimatologiya: amaliy qo'llanma / V. V. Krilov [va boshqalar]. - 2-chi nashr., qayta ko'rib chiqilgan va qo'shilgan Moskva: Geotar-Media, 2017. 176 s : il. - (Mutaxassis shifokor kutubxonasi). (Shifr 616.8-036.882-08 N 46)



BOSH MIYADA O'TKIR QON AYLANISHI BUZILISH HOLATLARI

Maftuna Hafizova Olimjonovna

Buxoro viloyat G'ijduvon tumani

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bosh miyada qon aylanishi sababdan paydo bo'ladigan kasalliklar zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, bu kasallik barcha mamlakatlarda juda keng tarqalgan. Kasallanish 1,5 dan 7,4 gacha (1000 aholi hisobiga), o'lim 10-15 foiz, majruh bo'lish 30-35 foizni tashkil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi vaqtda bu masala faqat tibbiyot muammosi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Shular haqida so'z boradi.

инсульт, qon tomir, yurak, kasalliklar, klinik, bosh miya.

Аннотация: В данной статье заболевания, возникающие вследствие нарушения кровообращения головного мозга, являются одной из актуальных проблем современной медицины. По данным Всемирной организации здравоохранения, это заболевание очень распространено во всех странах. Заболеваемость от 1,5 до 7,4 (на 1000 населения), летальность 10-15 процентов, инвалидность 30-35 процентов. Видно, что в настоящее время этот вопрос является не только медицинской проблемой, но становится одной из социальных задач.

инсульт, инсульт, сердце, заболевания, клинические, мозг.

Abstract: In this article, diseases arising from cerebral circulatory disorders are one of the pressing problems of modern medicine. According to the World Health Organization, this disease is very common in all countries. The incidence is from 1.5 to 7.4 (per 1000 population), mortality is 10-15 percent, disability is 30-35 percent. It is clear that at present this issue is not only a medical problem, but is becoming one of the social problems.

stroke, stroke, heart, disease, clinical, brain.

O'tkir bosh miya qon aylanishining buzilishi – bu o'choqli belgilar, umumiy miya belgilari, meningial belgilar yoki bu belgilarning birgalikda kechishi bilan ifodalanuvchi, qon-tomir o'zgarishlari ta'sirida yuzaga keluvchi miyaning zararlanishidir. Bemordagi nevrologik nuqsonlarning qancha vaqt saqlanib qolishiga qarab o'tib ketuvchi miya qon aylanishining buzilishi va insultlar tafovut etiladi. Tez-tez emotsional zo'riqish, kam harakatlik, chekish, tana vazni yuqori bo'lishi, qandli diabet, arterial gipertenziya, dislipoproteinemiya, yurak qon-tomir sistemasi kasalliklariga irsiy moyilligi bor bemorlar ushbu kasallikka ehtimolligi yuqori bo'lgan bemorlar hisoblanadi.



O'tkir bosh miya qon aylanishining buzilishi ishemik turi bosh miyaning kislorodga va energetik substratlarga bo'lgan ehtiyojini, miyaga kelayotgan qonni ta'minlay olmasligi va miyadagi qon aylanishining birdan yomonlashishi natijasida yuzaga keladi. O'tkir bosh miya qon aylanishining buzilishi gemorragik turi asosida esa miya qon tomirlari devori butunligi buzilishi natijasida miya to'qimasiga, miya qorinchalariga, miya pardalari ostiga qon quyilishi yotadi. Orqa miyada qon aylanishining o'tkir va surunkali buzilishlariga sabab bo'luvchi omillar juda ko'p. Arterio-venoz malformatsiyalar, aorta koarktatsiyasi, aorta shoxchalari aterosklerozi, gipoplaziyasi, anomaliyasi, spinal arteriyalar trombozi va emboliyasi, osteoxondroz, disk churrallari, umurtqaning kompression jarohatlari, onkologik kasalliklar, leykoz va umumiy gemodinamikaning tushib ketishi (qon yo'qotish, miokard infarkti) spinal qon aylanishning o'tkir va surunkali buzilishlariga sabab bo'ladi. Spinal qon aylanishning buzilishlarida vertebrogen omillarning ham o'rni katta. Osteoxondrozda disk yupqalashadi, cho'kadi va buning natijasida umurtqalararo teshik torayadi. Arteriyalarning ezilishiga umurtqaning o'rnidan ko'chishi, ya'ni siljishi (spondilolistez) ham sabab bo'ladi. Shuningdek, suyak-tog'ay to'qimasi qalinlashsa va osteofitlar paydo bo'lsa ham umurtqalararo teshik torayadi. Radikulomedullyar arteriyalar o'tadigan umurtqalararo teshikning torayishi, albatta, vaskulyar mieloishemiyaga olib keladi. Bu sohadagi umurtqalarning har qanday harakatlari shu yerdan o'tuvchi radikulomedullyar arteriyalarni siqib qo'yadi. Spinal reseptorlarning qo'zg'alishi radikulomedullar arteriyalarning reflektor spazmi va spinal qon aylanishning buzilishiga olib keladi. Reflektor tarzda namoyon bo'luvchi spinal ishemiyalar o'tib ketuvchi xususiyatga ega. Radikulomedullyar arteriyalar kompressiyasi pastki bel disklari tushishi sababli ham rivojlanadi. Osteoxondroz va uning asoratlari sababli rivojlanadigan spinal qon aylanishning buzilishlariga «vertebrogen vaskulyar mieloishemiyalar» deb aytiladi. Orqa miyada qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi ko'pincha lokal simptomlar bilan namoyon bo'ladi. Kasallik klinikasi orqa miyaning qaysi sohasida qanday arteriyaning zararlanganiga bog'liq. Orqa miyada qon aylanishining quyidagi buzilishlari farq qilinadi: 1) spinal qon aylanishning o'tib ketuvchi buzilishlari; 2) spinal insultlar (ishemik va gemorragik); 3) spinal qon aylanishning surunkali buzilishlari. Spinal qon aylanishning o'tib ketuvchi buzilishlarida o'tkir spinal ishemiya sababli paydo bo'lgan nevrologik simptomlar bir necha daqiqa ichida o'tib ketadi.

Bosh miya qon-tomir kasalliklarining kelib chiqish sabablarini o'rganish natijasida bir qancha xavf omillari borligi aniqlandi: bemorlar yoshi kasallik rivojlanishida muhim o'rin tutadi, yosh o'tgan sari kasallikning rivojlanish xavfi ortib boradi. Kasallik asosan, aholining yoshi o'tgan va keksa yoshdagi qismi uchun xavf tug'dirsa-da, lekin kishilar yoshi ortgan sari har 10 yillikda serebrovaskulyar kasalliklarning rivojlanish xavfi ikki barobar ortadi, misol uchun aholi soniga nisbatan 0-14 yoshda 1:30000, 35-44 yoshdagilar guruhida 1:5000, 65-74 yoshda



1:100, 75-84 yoshda 1:50 ta, 84 yosh va undan yuqorida 1:30 ni tashkil qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yoshi o'tgan va keksa kishilarda bosh miya qon-tomir tizimi va lipid almashinuvi buzilishi, ateroskleroz patologiyasi kelib chiqishi bilan bir-biriga o'zaro bog'liqdir, ateroskleroz rivojlanishi esa o'z navbatida gipertenziyaga olib keladi. ` 276 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Bosh miya qon aylanishi o'tkir buzilishi gipertonik kriz serebral varianti asorati hisoblanadi va gipertonik ensefalopatiya, o'tkinchi bosh miya qon aylanishi buzilishi, gemorragik yoki ishemik insult ko'rinishida namoyon bo'ladi. Gipertonik kriz deb arterial bosimning individual qon bosimiga nisbatan keskin ko'tarilishi, gipertoniya simptomatikasi chuqur namoyon bo'lishi va yoki qo'shimcha belgilar paydo bo'lishi bilan kechuvchi holatga aytiladi. Shunday qilib, tadqiqotga ko'ra, insultdan keyingi epilepsiya bilan og'rigan bemorlarning yarmidan ko'pi (59,6%), epileptik tutilishlar insultning o'tkir davrida (erta tutilishlar) sodir bo'lgan. Ma'lum bo'lishicha, insultning o'tkir davrida epileptik holatning rivojlanishi kelajakda insultdan keyingi epilepsiyaning boshlanishi va og'ir kechishining prognozi hisoblanadi. Shu bilan birga, og'ir PIE holat va ketma-ket epilepsiya uchun xavf omilidir.

REFERENCES

1. Adam S., Scott C., Dian A., Symptom to diagnosis. Chicago, USA. 2006., 804 p.
2. Allan H. Ropper., Robert H. Broun. Adams and Victor's Principles of Neurology. New York., 2005., 1386 p.
3. Alwyn Scott. Neuroscience. USA. 2002. 373 p.
4. Asadullayev M.M., Aslanova S.N. Asab kasalliklari propedevtikasi. Darslik. - T.: 2008, 335 b.
5. Baehr M., Frotscher M., Topical diagnosis in Neurology. Stuttgart. New York. 2005. 531p.
6. Buxhoeveden D.P, Casanova M.F. The minicolumn hypothesis in neuroscience. Brain. 2002; 125:935-951.
7. Greenstein B, Greenstein A. Color Atlas of Neuroscience // Neuroanatomy and Neurophysiology. New York., 2000. 449 p.



ВИРУСОЛОГИЯ КАК НАУКА

Хуррамова Луиза Наврузовна

*Ученицы 8 «Е» класса президентской специализированной
школы-интернат химиков и биологов имени Абу Али ибн Сина*

Аннотация: Данная статья будет посвящена вирусологии, отдельно как науке, представляя её историю, разделы и виды. Статья выходит на фоне острого дефицита отечественных и полного отсутствия переводных руководств по вирусологии, несмотря на актуальность этой темы. В работе предоставлены такие аспекты, как актуальность, история, классификация и небольшое заявление.

Ключевые слова: вирусы, микробиология, генетика, эволюция вирусов, бактерии, вирион, вегетативный вирус, провирус, ДНК, общая вирусология, частная вирусология, молекулярная вирусология, механизмы экспрессии вирусов, нуклеокапсиды, капсомеры, архитектура вирионов.

Актуальность: Вирусы являются постоянным вызовом для здравоохранения, промышленности и общества в целом. Вот основные причины :

- **Пандемии и эпидемии:** Случаи пандемий, таких как вспышка COVID-19, подчеркивают необходимость понимания вирусов и их распространения. Вирусология играет ключевую роль в прогнозировании, предотвращении и борьбе с такими пандемиями.

- **Эволюция вирусов:** Вирусы постоянно мутируют и адаптируются к новым условиям, что создает постоянную угрозу для здоровья человека и животных. Изучение эволюции вирусов помогает понять их поведение и разработать эффективные стратегии контроля.

- **Защита общества:** Вирусология играет важную роль в защите общества от биологических атак и террористических угроз. Понимание структуры и функционирования вирусов помогает разрабатывать методы диагностики, вакцин и противовирусных препаратов.

- **Здоровье животных и растений:** Вирусы могут вызывать болезни не только у людей, но и у животных и растений, что имеет серьезные последствия для сельского хозяйства, экологии и пищевой безопасности. Вирусология помогает разрабатывать методы контроля и профилактики инфекций у животных и растений.

- **Новые угрозы:** Появление новых видов вирусов и переход их от животных к людям представляет постоянную угрозу для здоровья человечества. Вирусологи постоянно мониторят и исследуют новые вирусные возбудители, чтобы своевременно реагировать на возможные угрозы.



Введение: Вирусология — раздел микробиологии, изучающий вирусы, их морфологию, физиологию, генетику, а также эволюцию вирусов и вопросы экологии. Вирусы несмотря на то, что общего с бактериями у них не так много, всё таки входят в микробиологию.

Классификация

По формам

- Вирион – является покоящейся формой, образуется внутри клетки и может существовать во внеклеточной среде
- Вегетативный вирус – внутриклеточная форма с образованием потомства.
- Провирус – геном вируса с ДНК в клетке.

Разделы вирусологии:

- Общая вирусология – изучает их жизнедеятельность. Следовательно из которой вытекает молекулярная вирусология.
- Частная вирусология – относится к более коммерческой версии науки, которая специализируется на определенных группах.
- Молекулярная вирусология – относительно молодая отрасль (первый симпозиум проведён в 1962 году), структуру и функции, механизмы экспрессии вирусных генов и т.д. Обладает необычными терминами, такими как, нуклеокапсиды, капсомеры, архитектура вирионов.

Патогенез вирусных инфекций: Проникновение вируса в клетки - одна из ключевых стадий патогенеза инфекционного процесса. Для большинства вирусов степень цитопатического действия вируса прямо зависит от множественности заражения. В естественных условиях инфицирование клеток вирусами не происходит обычно с высокой множественностью. Исключение составляют респираторные вирусы, которые передаются воздушно-капельным путем с высокой инфицирующей дозой. ВИЧ и гепатиты, наоборот, эффективно передаются с кровью в самых незначительных трудно определяемых титрах.

Для проникновения вируса в клетку, необходимо: высокое сродство к вирусоспецифическому рецептору; множественность рецепторов; эффективность слияния вируса с клетками при инфицировании; способность к образованию синцития, к образованию гигантских синпластов, состоящих из множества слившихся клеток, в которых вирусный нуклеопротеид без эндоцитоза беспрепятственно переходит от одной зараженной клетки к множеству других через цитоплазму.

Такими свойствами из респираторных вирусов обладает респираторно-синцитиальный вирус, а среди ретровирусов – вирус иммунодефицита человека.



История: Основоположником микробиологии был Антонио ван Левенгук, открыв бактерии, вирусологию в свою очередь оснвал Д.И.Ивановский, открыв вирус табачной мозаики, как нового типа возбудителя болезней, сделал он эти выводы с неудачного опыта фильтрации, представленной в работе 1892 года. Через 6 лет Мартин Байеринк провёл аналогичные опыты и убедился, что перед ним новая форма жизни, назвал вирусом, с латинского – яд.

Цели :Основной задачей вирусологии является изучение их морфологии, химического состава, принципов систематики, номенклатуры, особенности их репродукции, и изменчивости, патогенеза и иммуногенеза, также некоторых приёмов диагностики, специфической профилактики наиболее распространённых болезней, вызванных вирусами.

Вирусология как отдельная дисциплина существует около 60-70 лет, в Узбекистане она существует меньше, несколько последних десятилетий. К сожалению, пока что сильного прогресса не наблюдается, вероятно, из-за проблем с финансированием, отсутствием хороших специалистов, научных ресурсов, доступа к современным технологиям и других факторов. Однако, всё же некоторые достижения есть, в Ташкенте построен Научно-исследовательский институт вирусологии МЗ РУз и НИИ Вирусологии.

Заявление: Стоит подметить, что вирусология претендует на роль пятого царства . Существуют немало важных отличий от микробиологии:

- Объекты изучения: Микробиология изучает микроорганизмы, включая бактерии, археи, протисты и грибы, в то время как вирусология специализируется на изучении вирусов, которые являются неклеточными частицами и, следовательно, не относятся к микроорганизмам в классическом понимании.

- Различия в структуре и жизненном цикле: Вирусы состоят из нуклеиновой кислоты (ДНК или РНК) и белковой оболочки, но не имеют собственного метаболизма и могут размножаться только внутри живых клеток. Этот факт отличает их от микроорганизмов, которые обладают собственным метаболизмом и способны к самостоятельному размножению.

- Воздействие на организмы: Вирусы играют важную роль в вызывании многих инфекционных болезней как у животных, так и у человека, в то время как микроорганизмы могут быть как патогенными, так и полезными для организма.

- Методы исследования: Вирусология использует различные методы исследования, такие как молекулярные биологические методы, электронная микроскопия и биохимические анализы, для изучения вирусов и их воздействия на организмы. В то время как микробиология также использует эти методы, ее фокус на бактериях и других микроорганизмах подразумевает различные аспекты исследования.



Таким образом, хотя вирусология входит в область микробиологии, она имеет свои уникальные особенности и методы исследования, которые отличают ее от изучения микроорганизмов. Создание нового царства гарантирует развитием этой науки и потоком новых идей. Новое царство способствует углублению специализации, увеличению финансирования, повышению осведомленности последующих эпидемий, развитию остальных отраслей зависимых от вирусологии, таких как, фармацевтика, биохимия, медицина и т.д.

Выводы: Вирусология играет ключевую роль в понимании и борьбе с инфекционными заболеваниями, её вклад в развитие медицины и общественного здравоохранения трудно переоценить. В течении десятилетий эта наука сделала значительные открытия в области диагностики, лечения, медицины, терапии, вакцин и т.д. Однако, по сей день остаются незакрытые темы для изучения, таких как новых вирусов, мутаций старых, новых патогенных механизмов. Эти вопросы открывают путь к новым инновационным технологиям и подходам, что уже даёт толчок последующим отраслям. Вирусология как наука продолжает развиваться и совершенствоваться, а ее роль в обществе становится все более важной в контексте глобальных угроз здоровью. Поддержка научных исследований в этой области является необходимой для обеспечения безопасности и благополучия человечества в будущем.

Источники:

<https://ppt-online.org/291957>

<https://ru.m.wikipedia.org>

<https://library.spbu.ru/ru/novosti>

<https://rg.ru/2020/11/20>

<https://riv.uz/>

<https://shttps://fundamental->

<research.ru/ru/article/view?id=2090tudfile.net/preview/4658987//>



XX ASRNING 80-90 YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY, IJTIMOIY VOQEA VA HODISALAR

Saytniyozov Adham Annamuhammad o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Saytniyozov@gmail.com

Yusupova Muxlisa Nurali qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

yusupovarslon3@gmail.com

Safarova Munisa Eshmirza qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika talabasi

Nnaa96480@gmail.com

Annatatsiya: Bu maqola, XX asrning 80-90 yillarida O'zbekistonda ro'y beruvchi siyosiy va ijtimoiy voqealar va hodisalarni o'rganishga bag'ishlangan. Bu davrda O'zbekiston tarixida katta o'zgarishlar ro'y berdi, bu esa mamlakatning bugungi kungi va kelajagi uchun muhim ta'sir qildi. Maqola, ushbu voqealar va hodisalar orasidagi bog'liqlikni, ularning mamlakat va uning fuqarolarining hayotiga qanday ta'sir qilganligini tahlil qiladi. Ushbu maqola, tarixchi, siyosatshunoslar, ijtimoiy fanlar mutaxassislariga va umumiy ravnaq uchun qiziqarli bo'lishi mumkin.

Kalit so'z: Paxta ishi, qayta qurish, O'zbekiston SSR, Ivanov, Gdlyan, Sovet tuzumi, O'zbek ishi, o'zbek tili, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Sovet imperyasi, davlat ramzlari.

Annotation: The purpose of writing this article is to reflect the efforts of the Republic of Uzbekistan towards independence. We can call every speech included in this article an important political event, an indelible page of the history of the difficult and honorable struggle that brought our country to national independence. Of course, in this article, we tried to reflect all the events that happened in that period in a chronological manner in full and in detail.

Keyword: Cotton work, reconstruction, Uzbek SSR, Ivanov, Gdlyan, Soviet system, Uzbek work, Uzbek language, Declaration of Independence, Soviet Empire, state symbols.

Аннотация: Цель написания этой статьи – отразить усилия Республики Узбекистан на пути к независимости. Каждое выступление, вошедшее в эту статью, можно назвать важным политическим событием, неизгладимой страницей истории трудной и почетной борьбы, приведшей нашу страну к



национальной независимости. Разумеется, в этой статье мы постарались в хронологическом порядке, полно и подробно отразить все события, произошедшие в тот период.

Ключевое слово: Хлопковая работа, реконструкция, Узбекская ССР, Иванов, Гдлян, советский строй, узбекская работа, узбекский язык, Декларация независимости, Советская империя, государственные символы.

KIRISH

Sovet tuzimi davrida soxta kommunistik mafkuraga va ma'muriy buyruq boylikka asoslangan samarasiz ijtimoiy - iqtisodiy siyosat 80-yillarning o'rtalariga kelib , O'zbekiston iqtisodiyotida inqiroz holatlarining kuchayishiga olib keldi. Bu holat respublika aholisi turmush tarzini yanada pasaytirib uni og'ir muammolar iskanjasiga solib qo'ydi . [1:266]

SSSRdagi "qayta qurish" jarayoni avval boshidanoq siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohatlar esa unga bo'y sunuvchan ahamiyat kasb etdi . Oradan ko'p o'tmay , jaddalladshib borayotgan siyosiy jarayonlar bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o'rtasida katta farq ko'zga tashlana boshladi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham qayta qurishga girdobiga tortildi, uniq qonuniyatlariga amal qildi. [2:570] Qayta qurish siyosati markaz tomonidan 1985-1990-yillarda amalga oshirilgan siyosat KPSS MKning Aprel (1985) prenumi sovet jamiyati "qayta qurish " , bu jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloh qilish " yo'lini e'lon qildi. Bunda avvalo , ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoralik, iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaror qilindi . Biroq ilmiy jihatdan puxta asoslanmagan qayta qurish "konsepsiyasi "avval boshdanoq mag'lubiyatga mahkum edi. Shuning uchun ham kutulgan natijani bermadi. [3:264]

Qayta qurishning birinchi bosqichi(1985-1986-yillar) asosan ma'muriy - tashkiliy tadbirlarning ananaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Qayta qurishning dastlabki davrlarda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish , fan texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi shuning uchun ham 1986-yil 1-mart kuni KPSS XXVII s'ezdining KPSS Markaziy Komiteti siyosiy ma'ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyada fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan edi . Ammo , bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amlga oshirish mumkun emasligi. Tezda ayon bo'ldi . Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lindi . Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish , ma'muriy buyruqbozlik va byurokratizmga ,



qonunsizlikka qarshi kurashtirar edi. Statistik ko'rsatkichlarda qayd etilishicha , 1986-yildan boshlab mamlakat siyosiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987-yil yanvardan ishlab chiqarish suratlari keskin pasayib bordi. Iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi mag'lubiyatga uchradi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-1990-yillar)

Jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa kommunistik mafkura tomonidan 1987-yil yanvarda yanada aniqlashtirildi Moskva shahrida 1987-yil 27-28-yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS MKning bosh sekretari M.S.Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida " ma'ruza qildi. Biroq siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish , keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayonlarda ishtirok etishi Markaz uchun kutilmagan oqibatlarga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohatlar boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi. Oqibatda 1990-yil nafaqat qayta qurishning 2-bosqichi , balki SSSR axolisi balki butun dunyo umid ko'zi bilan qarayotgan qayta qurish siyosati butunlay mag'lubiyatga uchradi . Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va uning parchalanishiga olib keldi .Qayta qurish siyosatining mag'lubiyatga uchrashini 3 sabab bilan izohlanadi:

Birinchiidan , qayta qurishning aniq ,izchil,ilmiy jihatdan puhta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo'q edi.

Ikkinchidan , kommunistik partiya raxbarlari qayta qurish g'alabasidan manfaatdor emas edi . Ular har qanday demokratiya va oshkoralik totalitat tuzumning kushandasi ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan , M.S.Gorbochyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkun emasdi. Sotsializmga hos sinfiy munosabatlar , davlat mulkchiligi milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakkapartiyaviy raxbarlik , kommunistik mafkura , mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmagan edi . [4:571,572,]

„ Paxta ishi “ - 1983-yilda Markaz tomonidan ma'muriy buyruqbozlik tizimini mustaxkamlashga qaratilgan va ataylab o'ylab topilgan uydirma. 1983-yildan SSSR Bosh prokrori topshirig'iga ko'ra ., SSSR prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligida mamlakatning turli mintaqalaridan to'plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzulib , O'zbekiston yuborilgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan . Ular soxta ayiblovlar bilan qonunsizlik yo'liga o'tib, tergov jarayonlarida tuhmat, ig'volar uyushtirish , faktlarni soxtalashtirish , kishilarni soxta ma'lumot berishga majbur etish , o'zlariga yoqmagan kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanishgan.



Shu asosda O'zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashda „o'g'irlik“, „qo'shib yozish“larda ayblanib, Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi guruh tomonidan 1989-yilgacha 5 mingdan ko'proq partiya va sovet raxbarlari, tashlilot raxbarlari, kolxoz va sovhozlarning ko'plab raislari jinoiy javobgarlikka tortildi. T.Gdlyan guruhining O'zbekistondagi faoliyati davomida O'zbekiston SSR prokuraturasi va O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimlari, O'zbekiston Kompartiyasi MQ ning 4 nafar kotibi, viloyatlardagi qo'mitalarning 8 kotibi, O'zbekiston SSR Ministirlar Soveti raisi, O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidumi raisi, O'zbekiston paxta tozalash sanoati va boshqa bir qancha mas'ul xodimlar, umuman 62 nafar mas'ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy-javobgarlikka tortildi. 1989-yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirilgan. 1984-1989- yillar davomida T.Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq „jinoiy“ ish ko'rilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lgan. O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri B.Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan. [5;265] O'zbekistonda XX asrning 80- yillari „paxta ishi“, keyinchalik „o'zbeklar ishi“ degan ma'shum nom ostida tarixga kirdi. Inqiroziy xolatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki „yuzaga kelgan salbiy illatlarda“ deb bilgan markaz, O'zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab olindi. 1982-yil noyabrda KPSS MQ, Bosh kotibi L.I.Brejnev vafotidan so'ng mazkur lavozimni egallagan Yu.B.Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy joyiga qoyish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining taraftori sifatida maydonga chiqdi. Markazdagi siyosiy raxbaryat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqiroziy holatlarning sabablari yechimini aksariyat kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib intizomning bo'shashi, mafkuraviy hushyorlikni yo'qotish bilan izohladi. Respublika ijtimoiy hayotda katta „burilish“ yasagan O'zbekiston KP MQ 1984-yil XVI plenumi ham markazning respublikadagi „sog'lomlashtirish“ borasida ko'rsatyotgan va belgilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatladi. Mazkur plenum markazning „O'zbekistonda turg'unlik davri illatlariga qarshi kurash“ ini qo'llab quvattlagan holda mahalliy raxbar kadrlarni turli yo'llar bilan tazyiq ko'rsatish va jazolash jarayonlarini boshlab yubordi. 1984 – yilda O'zbekiston SSR prakurori, uning muovinaridan uchasi, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga markazdan yuborilgan hodimlar yuborildi. Mahalliy raxbarlar „iltimosiga binoan“ yuborilgan kadrlar noqonuniy tarzda hibsga olinganlarning manfaatlarni himoya qilishi ham qiyin edi. Aksincha, „desantchilar“ qatag'onlik siyosatining davom etishida, respublikada nohaqlik va



qonunbuzarlik , mansabini suiistemol qilishining avj olishida zo'rovonlik va tazyiqni kuchayishida " faol " rol oynadilar.

1983-yil sentabrdan 1989-yilning may oyiga qadar o'nlab yuzlab fuqarolarimizning qonuniy huquqi qasddan paymol qilindi . Ularga nisbatan haqoratlash ho'rlash jismoniy va ruxiy qiynoq kabi jinoyatlar sodir etildi . O'sha davrda V.I.Elyuxen boshliq guruhga shtab boshlig'I va guruh azosi sifatida jalb qilingan edi. Guruximizning samarali faoliyati natijasida Gdlyan tergov guruhi boshliqligidan ozod qilinib, praktura tizimidan haydaldi . [6;7] Ko'pchilikka ma'lumki respublikamizda „, paxta ishi " bo'yicha 1983-1989 – yillarda 4 yarim mingdan ziyod kishi jinoiy javobgarlikka tortilib , sudlangan. Ularning aksariyati aybsiz edi . 1983 – 1987-yillarda Moskva, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va RSFSRning boshqa shaharlaridan 1000 nafarga yaqin "desantchi" O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga yuqori rahbarlik lavozimlariga ishga yuborilgan edi. O'sha paytda "desantchilar" va 3000 nafardan ortiq tergovchilarga mahalliy rahbarlar va respublika huquq-tartibot organlarining ko'plab xodimlari katta yordam bergan. 1985 – 1990-yillarda O'zbekistonda "paxta ishi" degan uydirma bo'yicha jami 40 000 kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasiz o'tirdi, 5000 nafar kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. [7;7;12]

Qatag'on qilichi eng avvalo O'zbekistonning sobiq rahbari, marhum Sharof Rashidov xotirasiga qarshi ko'tarildi. "Sharof Rashi- dovchilik" degan sun'iy ibora o'ylab topilib, undan Sh.Rashidovni o'limidan so'ng badnom qilish va shuhratini yerga urishda foydalanildi. 1983-1989-yillarda shunchalik ko'p adolatsizlikka yo'l qo'yilganki, yuzlab gunohsiz kishilardan Gdlyan va Ivanov ustidan qonunchilik buzilayotgani haqida SSSR prokuraturasiga arizalar yog'ila boshlagan. Natijada prokuratura 1989 yil 25 mayda O'zbekistonda cheksiz hokimiyatga ega gdlyanchilar ustidan jinoyat ishi qo'zg'atadi. Tergovchilar brigadasiga Viktor Ilyuxin boshchilik qiladi. U O'zbekistonda 8 oy davomida tinimsiz tekshiruv harakatlarini olib borib, mas'um odamlar dodini eshitadi, yuzlab guvohlar bilan gaplashadi. Gdlyanchilar ishini obdon tekshiradi, rad etib bo'lmas dalillar to'playdi. 6 yil mobaynida gdlyanchilar deyarli 200 kishini ushlab hibsga olish to'g'risida qarorlar chiqargan. Shulardan 64 kishi poraxo'rlik uchun va qolganlari esa boshqa turli xil jinoyatlar va asosan "jinoiy yo'llar bilan topilgan boyliklarni saqlagani uchun" hibsga olingan. Poraxo'rlik uchun qamalganlarning har ikki nafaridan biri 1991 yilning 1-sentabriga qadar oqlangan. Obdon tekshirilganda jami 200 kishidan 40 nafardan ortiqrog'igina aybdor deb topilgan. Aybsiz kishilar 7-9 oydan 3-7 yilgacha hibsdan



saqlangan. “Masalan, militsiya mayori A. Muhammadiyev 2 yil-u 2 oy, militsiya mayori Vidodil Izzatov 7 yil, Navoiy viloyatining ijroiya komiteti ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i To‘ra Hayitov hech qanday aybsiz 3 yildan ko‘proq hibsdan saqlangan” . [8] O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskvaga minglab xatlar jo‘natildi . Afsuski , bu xatlar tekshirilmagan, xatto javob yozishga ep ko‘rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning xodimlariga ketma-ket unvonlar berildi. 1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbar faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish , toptalgan huquqlarini tiklash kabi ishdan boshlandi. „ Paxta ishlari “ ni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi . Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyul kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokrori SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko‘rsatildi . Bu xatda „ Paxta ishlari” chuqur tahlil qilinib sudlanganlarni oqlash masalasi qo‘yilgan edi. Komissiya ikki yildan ko‘p vaqt orasida 40 ming bo‘limli ishni ko‘rib chiqdi . 3.5 mingdan ko‘proq kishi oqlandi. 130 yildan ortiqroq davrda qaramlik azobini tortib kelgan o‘zbek xalqi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi . Islom Karimov boshchiligida Respublika Oliy Kengashi 1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berdi. 1990-yil 24-mart kuni Respublika Oliy Kengashining 1-sessiyasida O‘zbekistonda prezidentlik lavozimini tavsiya etish to‘g‘risidagi masala muhokama qilindi. . O‘zbekiston prezidentining „ Navro‘z xalq bayramini o‘tkazish yakunlari to‘g‘risida ” gi 1990-yil 3-mayda qabul qilingan Farmoniga asosan har yili 21-martni dam olish kuni va umumxalq Navro‘z bayrami kuni deb e‘lon qilindi . 1990-yil 20-iyunda „ Mustaqillik Deklaratsiyasi ” qabul qildi . yy1991-yil 31-avgust O‘zbekiston respublikasining mustaqilligi e‘lon qilindi. Har yili 1-sentabr Mustaqillik kuni –umum xalq bayrami deb e‘lon qilindi

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguncha o‘zbek xalqi juda xam og‘ir qora kunlarni boshdan kechirdi .O‘zbekistonda XX asrning 80-90 yillarida Sovet Ittifoqi markazi tomonidan “qayta qurish” siyosati amalga oshirildi, lekin bu siyosatning ilmiy jihatdan puxta asoslanmagan “konsepsiyasi” mag‘lubiyatga uchradi . Sovet tuzimiga nisbatan ko‘tarilgan qo‘zg‘alonlarni shavqatsizlarcha bostirdi. O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalgan , xalqqa nisbatan taqib kuchaydi. 1989 yil may-iyun oylarida Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro‘y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda



